



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 5 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>Kalenov K.T.</i>	22
8.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING TO'G'RI SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich</i>	25
9.	IQTISODIYOTNING INNOVASION RIVOJLANISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AVSTRALIYA MODEL <i>Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich</i>	29
10.	O'ZBEKISTON SHIMOLIY HUDUDLARIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING OZIYQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI <i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	32
11.	SANOAT ASOSIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION VA KLASTER USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI <i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	35
12.	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI <i>Xasanov Xayrullo Nasrullayevich</i>	38

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON SHIMOLIY HUDUDLARIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Tleuov Niyetulla Raxmanovich

Qoraqalpog' davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning shimoliy hududlarida mavjud ekologik muammolar atroficha o'rganilib, ularning oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga ta'siri iqtisodiy tahlil qilingan. Shuningdek, shimoliy hududlaridagi ekologik muammolarning oziq-ovqat sanoati rivojlanishiga ta'siri kamaytirish va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati, ekologiya, ekologik muammolar, shimoliy hududlar, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish.

Abstract: This article provides a detailed examination of environmental issues prevalent in the northern regions of our country and conducts an economic analysis of their impact on the development of the food industry. Additionally, it proposes promising strategies for mitigating the effects of these environmental problems on the food industry's development and outlines directions for the sector's further growth.

Keywords: food products, food industry, ecology, environmental problems, northern territories, food industry development.

Абстрактный: В данной статье подробно изучены экологические проблемы, существующие в северных регионах нашей страны, и проведен экономический анализ их влияния на развитие пищевой промышленности. Также предложены перспективные направления по снижению воздействия экологических проблем северных регионов на развитие пищевой промышленности и дальнейшему развитию пищевой отрасли.

Ключевые слова: пищевые продукты, пищевая промышленность, экология, экологические проблемы, северные территории, развитие пищевой промышленности.

Kirish (Введение/Introduction)

O'zbekiston shimoliy hududlari, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va qisman Buxoro viloyatining shimoliy qismi uzoq yillar davomida Orol dengizining qisqarishi, suv resurslarining taqchilligi, yerlarning sho'rlanishi va atmosfera changlanishining kuchayishi kabi murakkab ekologik jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu omillar mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga, aholi turmush darajasiga va ayniqsa agrar hamda oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ekologik muammolarning kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida xomashyo yetishtirishdan tortib qayta ishlash, saqlash va logistika tizimigacha salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda mintaqada iqtisodiy faollikni tiklash, sanoatni diversifikatsiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsulдорligini oshirish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ekologik inqirozning uzoq muddatli oqibatlari haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasi natijasida xomashyo bazasining sifat ko'rsatkichlari pasayib bormoqda, suv tanqisligi esa oziq-ovqat sanoati korxonalarining texnologik jarayonlarini cheklab qo'yimoqda. Bundan tashqari, atmosfera changlanishi va kimyoviy moddalarning yuqori konsentratsiyasi ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan standartlarga erishishni qiyinlashtirmoqda.

Shu bilan birga global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligiga qo'yilayotgan talablar keskin oshgan bir paytda shimoliy hududlarda kuzatilayotgan ekologik muammolar ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga bevosita strategik xavf tug'diradi. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan agrar soha hamda oziq-ovqat sanoatiga tayanganligi sababli, ekologik omillarni chuqur tahlil qilish, ularning sanoat rivojlanishiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir.

Mazkur tadqiqotning aynan shu masalalarga bag'ishlanganligi, jumladan Orolbo'yi hududining ekologik inqirozi nafaqat mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga, balki respublika miqyosidagi oziq-ovqat

xavfsizligi, aholining sog'lig'i va eksport salohiyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli shimoliy hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, oziq-ovqat sanoatida resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, "yashil" standartlarga mos ishlab chiqarish modelini shakllantirish kabi chora-tadbirlarni asoslash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

O'zbekiston shimoliy hududlarida kuzatilayotgan ekologik muammolar sharoitida oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun maqsadli ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni amaliy innovatsion loyihalar shaklida amalga oshirish nihoyatda muhimdir. Mintaqada Orolbo'yi inqirozi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning sho'rlanishi va ekologik yuklamaning ortishi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanmaydi. Shu bois ilmiy tadqiqotlar ekologik sharoitga moslashtirilgan innovatsion yechimlarni qamrab olishi lozim.

Jumladan, shimoliy hududlarda ixtisoslashtirilgan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, biotexnologik qayta ishlashni chuqurlashtirish, hamda xom ashyoni to'liq va ikkilamchi qayta ishlashga asoslangan resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish eng istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Ekologik muammolar kuchli bo'lgan hududlarda bunday yondashuvlar nafaqat mahsulot tannarxini kamaytiradi, balki mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi [1].

Xususan, Orolbo'yi mintaqasida xom ashyoni chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan maxsus zonalarini tashkil etish, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashgan maydonlarni ajratish va u yerlarda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarur. Bunday loyihalar suvni tejaydigan texnologiyalar, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan bioproduktlar olish, sho'rlanishga chidamli navlarni yetishtirish, ikkilamchi xomashyolardan foydalanib yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik bosim yuqori bo'lgan hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlash faqat korxonalar faolligi bilanгина emas, balki davlat organlarining o'zaro samarali hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Shu bois, O'zbekiston shimoliy hududlarida oziq-ovqat xom ashyosi va tayyor mahsulotlarni

nazorat qilish tizimini takomillashtirish, sanitariya-gigiyena standartlarini ekologik holatga moslashtirish, laboratoriya infratuzilmasini kuchaytirish va nazorat institutlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv mexanizmini yaratish dolzarb vazifadir [2].

Mazkur mexanizmning samarali ishlashi ekologik xavf ostidagi hududlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlaydi, eksport salohiyatini oshiradi hamda aholining sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, shimoliy hududdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun yagona, mukammal moslashgan tashkiliy model mavjud emas. Har bir korxonaga ekologik holat, xomashyo ta'minoti, suv resurslari va logistika imkoniyatlariga qarab o'z tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli, korxonalar faoliyatini ekologik muammolar sharoitiga moslashtiradigan moslashuvchan boshqaruv tizimlarini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Alohida ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlari sharoitida ekologik bosim kuchaygan mintaqalarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun xom ashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlovchilar va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari uyg'unlashgan boshqaruv modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, shimoliy hududlarda xomashyo tanqisligi va sifatning pasayishi sharoitida korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun optimal mulkchilik shakllarini tanlash zarur bo'ladi [3].

Bunda ekologik holatni inobatga olgan holda erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, vertikal integratsiyalashgan agro-sanoat klasterlari, agrologistika markazlari, yoki kooperativ asosidagi korxonaga tuzilmalari samaraliroq natija berishi mumkin. Bunday strukturalar xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan qayta ishlab korxonalarini o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi, ekologik tavsakkalchilikni kamaytiradi va mintaqada barqaror ishlab chiqarish zarurini yaratishga xizmat qiladi [4].

O'zbekiston shimoliy hududlarida, ayniqsa Orolbo'yi mintaqasida faoliyat yuritayotgan yirik oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablari va ekologik muammolar bilan moslashgan tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Ekologik nosog'lom sharoit, xomashyo bazasining qisqarishi, suv tanqisligi, transport-logistik cheklovlar korxonaga boshqaruv modelining qayta ko'rib chiqilishini zarur qiladi [5]. Shu ma'noda, moslashuvchan, ekologik xavflarni inobatga olgan tashkiliy tuzilma korxonaga faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

M.Axmatilovning qayd etishicha, oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish dasturlarining strategik maqsadi korxonaning ichki iqtisodiy, mehnat va texnologik resurslarini safarbar etish, ular samaradorligini oshirish hamda tashqi investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun qulay muhit yaratishdan iborat bo'lishi lozim. Shimoliy hududlarda ekologik bosim yuqori bo'lganligi sababli bu yondashuv yanada dolzarbroqdir [7]. Ekologik infratuzilmaning zaifligi xorijiy va mahalliy investitsiyalarning kirib kelishiga to'siq bo'layotgan sharoitda korxonalarining tashkiliy tuzilmasi aynan ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilishi talab etiladi [8].

S.Doxolyan va M.Vartanova fikriga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlarining past samaradorligi bir qator tashkiliy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, ular ekologik og'ir sharoitda yanada keskinlashadi [9].

Fikrimizcha, O'zbekiston shimoliy hududlarida oziq-ovqat sanoatining tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Ammo, Orolbo'yi mintaqasiga xos ekologik omillar ushbu yutuqlarning amaliy natijalarini sezilarli darajada cheklashi mumkin. Shu sababli ekologik inqiroz sharoitida sanoatni tashkil etish, boshqarish va modernizatsiya jarayonlari yanada murakkablashadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Mazkur statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning najariy qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, ekologik muammolar sharoitida shimoliy mintaqalar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari asoslangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikaning shimoliy hududlaridagi oziq-ovqat sanoatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi umumiy makroiqtisodiy omillar ham mavjud bo'lib, xususan:

- kechayotgan inflyatsiya jarayonlari;
- ishlab chiqarish vositalari tannarxining keskin oshishi;
- kredit resurslarining qimmatlashuvi;
- korxonalar o'rtasida to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmashligi;
- davlat tomonidan moliyaviy yordam va subsidiyalarning qisqarishi;

- aholi xarid qobiliyatining pasayishi va boshqalar.

Biroq, ekologik holat og'ir bo'lgan Shimoliy hududlar sharoitida ushbu omillar yanada keskinroq seziladi. Masalan, suv tanqisligi va yerlarning sho'rlanishi tufayli xomashyo yetishtirish xarajatlari ortadi, bu esa ishlab chiqarish tannarxining inflyatsiyadan tashqari qo'shimcha oshishiga sabab bo'ladi. Orolbo'yi hududidagi transport-logistika cheklovlari ham kredit resurslari va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

Shu bilan birga, aholining daromadlari ekologik salomatlik va ijtimoiy holatga bog'liq bo'lganligi sababli, mintaqada xarid qobiliyati mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan pastroq shakllanadi. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning barqarorligiga ta'sir qiladi va korxonalar rivojlanishida qo'shimcha xavf omillarini yuzaga keltiradi.

Natijada, O'zbekiston shimoliy hududlarida oziq-ovqat sanoatining tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishi nafaqat iqtisodiy islohotlarga, balki ekologik omillarni boshqarish darajasiga, resurslar taqchilligini yumshatish choralariga ham bevosita bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan makroiqtisodiy muammolarning oziq-ovqat sanoatiga ta'siri, xususan mamlakatning shimoliy hududlari bo'yicha quyidagilarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

1) Kechayotgan inflyatsiya jarayonlari.

O'zbekiston bo'yicha inflyatsiya darajasi oshishi, ayniqsa oziq-ovqat va energiya sohalarida narxlarning tez-tez ko'tarilishiga olib keladi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida bu yanada keskin kechadi. Chunki:

- Qoraqalpog'iston va Xorazmga oziq-ovqat mahsulotlarining ko'p qismi respublikaning boshqa hududlaridan olib kiritiladi;
- transport masofasi uzoqligi tufayli narxlar keskin oshadi;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun xomashyo, ikkilamchi materiallar, energiya va logistika xarajatlari tez oshadi.

Umumiy qilib aytganda, inflyatsiya hududda mahsulot tannarhi va ishlab chiqarish xarajatlarini yanada tez oshiradi.

2) Ishlab chiqarish vositalari tannarxining keskin oshishi.

Qoraqalpog'iston va Xorazmda oziq-ovqat sanoati asosan qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ammo:

- suv taqchilligi;
- yer sho'rlanishi;
- hosildorlikning pasayishi ishlab chiqarish vositalari (o'g'it, texnika, yoqilg'i, suv nasoslari, filtrlash tizimlari)ga bo'lgan talabni oshiradi. Buning oqibatida ishlab chiqarish uskunlari va energiya xarajatlari boshqa hududlarga nisbatan qimmatroq, o'z navbatida xomashyo tayyorlash tannarxi ko'tariladi, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari keskin oshgan.

3) Kredit resurslarining qimmatlashuvi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiya, suv tejevchi texnologiyalar, qayta ishlash jihozlari va sanitariya talablarini bajarish uchun katta kapital talab qiladi. Ammo, shimoliy hududlarda:

- banklar tomonidan ekologik xavflilik tufayli qo'shimcha talablar qo'yiladi;
- kredit xavfliligi yuqori baholanadi;
- foiz stavkalari ko'pincha boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Bularning barchasi korxonalarini modernizatsiyalash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'z-o'zidan ishlab chiqarish quvvatlari eskirib boradi.

4) Korxonalar o'rtasida to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmashligi (debitor va kreditor qarzdorlikning yuqoriligi).

Qoraqalpog'iston va Xorazmda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar ko'p hollarda: qishloq xo'jaligi korxonalarini, qayta ishlovchi korxonalar va savdo tashkilotlari bilan uzviy bog'langan. Shuningdek, mahsulot aylanishi uzoq, xomashyosi mavsumiydir. Shu sabab to'lovlar kechikishi:

- aylanma mablag' yetishmovchiligini keltirib chiqaradi;
- mavjud kapitalning muzlab qolishiga sabab bo'ladi;
- ishlab chiqarishni muntazam davom ettirishni qiyinlashtiradi.

5) Davlat tomonidan moliyaviy yordam va subsidiyalarning qisqarishi.

So'nggi yillarda davlat qo'llab-quvvatlashi qayta formatlanmoqda. Bu jarayonda suv tejevchi texnologiyalar uchun subsidiyalarni olish mexanizmlari murakkab, orolbo'yi hududi bo'yicha ajratilgan mablag'lar asosan ekologik tiklanish loyihalariga yo'naltirilgan, sanoat korxonalariga bevosita moliyaviy yordam kamayganligini anglatadi.

Umuman olganda, shimoliy hududlarda oziq-ovqat sanoatining asosiy muammolari – modernizatsiya va ekologik moslashuv hamda arzon moliyaviy resurslarning yetishmasligidir.

6) Aholi xarid qobiliyatining pasayishi.

Qoraqalpog'iston ekologik yo'qotishlar ta'sirida aholining real daromadlari va salomatlik xarajatlari ortib borayotgan hudud hisoblanadi.

Xorazm viloyatida esa aholi real xarid qobiliyatining sekin o'sishi kuzatilmoqda.

Shu bois, mahalliy bozorda talab barqaror emas. Oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot narxini ko'tara olmaydi. Buning natijasida, aholining arzon mahsulotlarga bo'lgan talabi oshadi, sifatli qayta ishlangan mahsulotlar sotuvi qisqaradi.

Bir so'z bilan aytganda Qoraqalpog'iston va Xorazmda oziq-ovqat sanoati butun respublika bo'yicha eng katta iqtisodiy-ekologik og'ir sharoitda rivojlanmoqda.

Xulosa (Заключение/Conclusion)

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, mamlakat shimoliy hududlaridagi ekologik muammolarning oziq-ovqat sanoati rivojlanishiga ta'siri kamaytirish va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Shimoliy hududlar uchun hududiy narx barqarorligi monitoringi tizimini joriy etish;
2. Ekologik samarador texnologiyalar uchun kompensatsiya joriy etish;
3. Ekologik risk asosida diferentsiyalangan kreditlash modelini ishlab chiqish;
4. Agro-sanoat to'lovlarining uzluksizligini ta'minlaydigan raqamli kliring platformasini yaratish;

5. Hududiy sanoatni barqaror qo'llab-quvvatlash indeksi asosida grant va subsidiyalarni differensial taqsimlash;

6. Mahalliy ijtimoiy oziq-ovqat barqarorligi dasturini yaratish.

Ushbu takliflar inflyatsiya ta'sirini monitoring asosida kamaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiruvchi ekologik samarador texnologiyalarni rag'batlantirish, kreditlar uchun differensial risk-modellar yaratish, to'lovlar barqarorligini ta'minlovchi raqamli kliring tizimini joriy etish, subsidiyalarni hududiy ehtiyojga mos taqsimlash va aholining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirish, mintaqaning oziq-ovqat sanoatiga strategik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston shimoliy hududlarida oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish ekologik, texnologik va makroiqtisodiy omillarni o'zaro bog'liq holda hal qilishni talab etadi. Shu maqsadda, hududning ekologik holatiga mos innovatsion yondashuvlar, ilmiy asoslangan boshqaruv modellari va resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish nafaqat sanoat salohiyatini oshiradi, balki umumiy ovqat xavfsizligini ta'minlash va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Belyaev N., Donskova L. Food Sector New Technologies and Innovations: Priorities for Vector Development / SHS Web of Conferences 93, 04017 (2021), p.5
2. Расторгуев П.В. Особенности формирования систем контроля качества и безопасности продукции АПК в отдельных странах. Экономические вопросы развития сельского хозяйства Беларуси. 2013. 1(41):159-170.
3. Завьялова Л.И., Прудников К.О. Организационная структура управления предприятиями пищевой промышленности // ЭКОНОМИКА и УПРАВЛЕНИЕ. № 4, 2006г., с.12
4. Атаев Қ.Б. Организация коммерческой деятельности предприятий пищевой промышленности. Автореферат дисс. к.э.н., Санкт-Петербургу: СПУЭИ, 1994г. С.14
5. Руднев М.Ю. Организация и управление на предприятиях пищевой и перерабатывающей промышленности. ФГБОУ ВО «Саратовский ГАУ». - Саратов, 2018. - 70 с.
6. Рябова Н.В., Саидов З.А. Система управления бизнес-процессами в крупных компаниях пищевой промышленности // Российское предпринимательство. – 2008. – Том 9. – № 9. – С. 90-95.
7. Ахматиллов М.А. Развитие механизма управления предприятиями пищевой промышленности. Автореферат дисс. канд.экон.наук. Москва: ИРЭИ, 2012г. С.12
8. Михайлушкин П.В., Баранников А.А. кономические аспекты развития пищевой и перерабатывающей промышленности. Часть 1 // Журнал «Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания», 2012. С.179-186
9. Дохолян С.В., Варганова М.Л. Анализ состояния пищевой и перерабатывающей промышленности в субъектах Северо-Кавказского федерального округа // Российское предпринимательство. – 2017. – Том 18. – № 4. – С. 483-500.
10. <https://ziyonet.uz>